

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

Madaminova Sarvinoz Ilxombek qizi

*Urganch davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy integratsiyalashgan yondashuvlarning mazmun-mohiyati, ularning ta‘lim jarayoniga ta‘siri hamda samaradorlik omillari yoritilgan. Xususan, integratsiyalashgan ta‘lim, STEAM, CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi usullarning o‘zbek tili darslariga tatbiqi tahlil qilinadi. Maqolada til o‘rgatishda fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etish imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilini zamonaviy, innovatsion asosda o‘qitish uchun yangi yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili, integratsiyalashgan yondashuv, zamonaviy ta‘lim, CLIL, STEAM, kommunikativ kompetensiya, fanlararo bog‘liqlik.*

Abstract: *This article explores the essence of modern integrated approaches in teaching the Uzbek language, their impact on the educational process, and the factors that enhance effectiveness. In particular, the article analyzes the application of integrated education methods such as STEAM and CLIL (Content and Language Integrated Learning) in Uzbek language classes. It examines how interdisciplinary connections, development of communicative competence, and active student engagement can be fostered through these approaches. The research findings contribute to defining innovative directions for modern Uzbek language instruction.*

Keywords: *Uzbek language, integrated approach, modern education, CLIL, STEAM, communicative competence, interdisciplinary connection.*

Globalizatsiya jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta‘lim tizimidan yangicha, integratsiyalashgan yondashuvlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda til o‘rgatish jarayoni nafaqat grammatik bilimlarni berishga, balki o‘quvchining fikrlash qobiliyati, kommunikativ kompetensiyasi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi zarur. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida yangi, zamonaviy va interfaol usullarni joriy etish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

XXI asrda ta‘lim jarayoni faqatgina bilim berishga emas, balki o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilini o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. "Integratsiya" so‘zi lotincha "integer" — butunlik, yaxlitlik degan ma‘noni anglatadi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu turli o‘quv fanlarining mazmun, maqsad va metodlar bo‘yicha uyg‘unlashuvini bildiradi[1].

Integratsiyalashgan ta’lim — bu fanlararo bog‘liqlik asosida bilimlarni o‘zaro uyg‘un holda o‘rgatishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Bunda o‘quvchilar nafaqat alohida fan bo‘yicha, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi orqali tizimli bilimga ega bo‘ladilar. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki boshqa fanlar bilan bog‘liq holda chuqurroq bilim olishiga ham xizmat qiladi. Jumladan, CLIL (Content and Language Integrated Learning – Mazmun va Tilni Integratsiyalashgan O‘rganish) metodikasi til va mazmuni birgalikda o‘rgatish orqali o‘quvchilarni ko‘p qirrali fikrlashga, murakkab muammolarni yechishga tayyorlaydi.

O‘zbek tili fanida integratsiyalashgan yondashuvlar orqali quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha yangiliklar joriy etilishi mumkin: CLIL (Content and Language Integrated Learning): Bu model orqali o‘quvchilarga boshqa fanlardan (masalan, geografiya, tarix, biologiya) ma’lumotlar O‘zbek tili darsida beriladi. Bu esa nafaqat til, balki umumiy bilim doirasini kengaytiradi. STEAM yondashuvi: O‘zbek tili darslarida texnologiya, san’at, matematika va muhandislik elementlarini qo‘llab, masalan, she’r tahlili orqali ritm va matematika bog‘liqligini ko‘rsatish mumkin. Yoki hikoya yozish jarayonida vizual elementlardan foydalanish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish mumkin. Fanlararo loyiha ishlari: masalan, “Tabiat va inson” mavzusida o‘zbek tili, biologiya va adabiyot fanlarini uyg‘unlashtirgan tarzda o‘quvchilarni mustaqil ijodiy ishga jalb etish mumkin.

Biroq, bu kabi zamonaviy yondashuvlarning joriy etilishi bir qator muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Avvalo, ushbu muammolarning boshida o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi turadi. Integratsiyalashgan yondashuvlar, ayniqsa CLIL modeli, nafaqat chet tilini, balki boshqa fanni ham ingliz tilida o‘qitishni talab qiladi. Ko‘plab o‘qituvchilar esa bu borada yetarli malakaga ega emas, chunki an’anaviy metodlar asosida shakllangan ta’lim tizimi ularni bunday yondashuvlarga tayyorlamagan. Ikkinchi muhim muammo – o‘quv-metodik materiallarning yetishmasligi. CLIL yoki boshqa integratsiyalashgan usullar asosida ishlab chiqilgan darsliklar, qo‘llanmalar, multimediyaviy vositalari juda kam. Aksariyat hollarda o‘qituvchi dars materialini mustaqil tayyorlashga majbur bo‘ladi, bu esa ko‘p vaqt va kuch talab qiladi. Shuningdek, mavjud darsliklar ko‘pincha milliy ta’lim kontekstiga moslashtirilmagan bo‘ladi, bu esa ularning samaradorligini pasaytiradi. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va motivatsiyasi ham muhim omil hisoblanadi.

Bunday muammolarni samarali hal etish uchun bir qator strategik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Avvalo, o‘qituvchilarning malaka va tayyorgarlik darajasini oshirish eng muhim vazifalardan biridir. CLIL kabi integratsiyalashgan metodikalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarga nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda xalqaro onlayn platformalar — British Council, Coursera yoki Cambridge CLIL Toolkit kabi resurslardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, metodik materiallar tanqisligini bartaraf etish uchun mahalliy ta’lim kontekstiga moslashtirilgan CLIL darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqilishi o‘zbek tilini o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuvlar zamonaviy ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ularning shaxs sifatida kamol topishiga, keng fikrlashiga va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilar ushbu metodlarni puxta o‘zlashtirgan holda o‘z amaliyotida qo‘llasa, o‘zbek tili ta’limi sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Светловская Н.С. Интеграция в обучении: теоретико-методологические основы. – М.Педагогика, 1989. – 142 с.
- 2.Комёнский Я.А. Великая дидактика. – М.: Просвещение, 1982.